



## BO'LAJAK TARBİYACHILARNING PEDAGOGIK FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV

**Matmusayeva Muhayyo Azamovna**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Esonaliyeva Ominaxon Shahobiddin qizi**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7816327>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- apiril 2023 yil

Ma'qullandi: 05-apiril 2023 yil

Nashr qilindi: 11-apiril 2023 yil

### KEY WORDS

*Bo'lajak tarbiyachi pedagog, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, qobiliyat, kreativlik, faoliyat, didaktik ashyo, pedagogik qobiliyat, innovatsion kasbiy faoliyat, pedagogik amaliyot, kompetensiya, ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlar, ilg'or tajriba.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola maktabgacha ta'lim sohasining fidoyilari bo'lgan tarbiyachilar va ularning kasbiy faoliyatda kreativligi qanday shakllarda namoyon bo'lishi xususidagi fikr-mulohazalarga bag'ishlanadi. Bundan tashqari "maktabgacha ta'lim"sohasi to'g'risida ham ayrim nazariyalar berilish barobarida davlat, millat va xalq uchun maktabgacha ta'limning ahamiyati borasidagi qarashlar ham berilib o'tilgan.*

Ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan maqsadlarga erishish, xilma-xil faoliyatini uyushtirish, bolalarni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. Shu sababdan ta'lim sohasidagi islohotlarning bevosita davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ko'plab dasturlar tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining maktab yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Bu o'z navbatida ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarurligini talab etadi[1].

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash uchun ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, bundan tashqari , pedagogik amaliyot, ma'naviyat soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi.

Maktabgacha ta'lim bilim olishning poydevorini tashkil qiladi. Ta'lim jarayonining keyingi har bir bosqichi maktabgacha ta'limning qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liq hisoblanadi. Hamda biz bu sohani kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boyluk deyishimiz ham mumkin. Bu boylukning qadr-qimmati shu

qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo'qki, uning ustozlari bo'lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchasining o'z ustozlari va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'lboshchisi bo'ladi [2]. Maktabgacha ta'lim sohasida ham o'z ustozlik faoliyati bilan kelajak avlod vakillariga bilim va ilm chashmalaridan ilinayotgan tarbiyachilar ham shundayin yuksak e'tirofqa egadirlar.

Bo'lajak pedagog tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli, shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachi pedagogning siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi pedagog o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulqatvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati boshqa kasb egalari bilan ajratib turadi. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur [4].

Tarbiyachi pedagoglarning kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablardan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat.

Tarbiyachi pedagog mashg'uloti uchun kerakli bo'lgan didaktik ashyoni maqsadga ko'ra o'zi tayyorlaydi, tarbiyalanuvchilarni yasash, ijod qilish jarayoniga jalb qilib, ularning aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga turtki beradi [5]. O'z faoliyati mobaynida tarbiyachi kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Bo'lajak pedagog tarbiyachilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Shuningdek, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Odatda bo'lajak pedagog tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va u asta- sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Kreativlik (lot., ing. "create" yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini anglatadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat

turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehnni o'tkirlikni belgilab beradi, ta'lim oluvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi [6].

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida bo'lajak pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Kreativ shaxs-jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Yuqoridagi berilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi didaktik munosabatlarni o'rinli va mazmunli tashkil etishda tarbiyalanuvchida mavjud yosh xususiyatlarini albatta, inobatga olish lozim.

Bu inobatga olingan xususiyatlar tarbiyachiga kreativ faoliyati davomida faqatgina foyda uchun xizmat qiladi [6].

Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv yosh avlod vakillarida zamonaviy jamiyatimizga kirib kelayotgan innovatsion texnologik jarayonlarda faol bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi, kreativ fikrlash ko'nikmalarini yanada shakllantirib, erkin mavzularda erkin fikr bildirish bilan birga o'xshamas, o'zgaralar fikridan ajralib turuvchi fikrlarni namoyon qilish xislatlarini oshiradi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachining maktabda amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda o'z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o'zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo'llash, rahbarlik ko'nikmalarini egallash, tarbiyachi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi [8]. Bularning barchasi bo'lajak pedagog tarbiyachini tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak pedagog tarbiyachilar o'z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o'zlashtirishlari kerak [7]. Ular:

- bo'lajak tarbiyachilarda ongli intizomni tarkib toptirish;
- bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish;
- guruhdagi faol tarbiyalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag'batlantirish;
- tarbiyalanuvchilar bilan topshiriqlar ustida tizimli ishlash va bu jarayonda ularni faollashtirish;
- tarbiyalanuvchilari orasida tarbiyaviy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish kabilar.

Shu bilan bir qatorda bo'lajak tarbiyachilar innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari davomida dialogga kirishish, fanga oid yangi ma'lumotlar ustida ishlash, mustaqil bilim olish, manbalar ustida ishlash hamda o'rgangan

tajribalarini tahlil qilish muhim o'rin egallaydi..

Maktabgacha ta'lim faoliyatiga rahbarlik qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilar bolalarda atrof-muhit, tabiat, nutq va hisoblashga oid dastlabki ko'nikmalarni hosil qilish bilan bir qatorda ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan milliy urfodatlarimizni ham singdiradilar. Ular bolalarda juda yoshlikdan boshlab, haqgo'ylik, bag'rikenglik, birdamlik, o'zaro yordam kabi sifatlarni shakllantirishga intiladilar]. Xalq ta'limining sifati ta'limning keyingi bosqichlarida bolalarning bilimlarni sifatli o'zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun xalq ta'lim muassasalarini modernizatsiyalashga oid yagona talablarni ishlab chiqish, ushbu talablar sifatli ta'lim va tayanch ko'nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Xalq ta'limni individuallashtirish tamoyili o'zida bir qator talablarni mujassamlashtiradi. Jamiyatning rivojlanishi barobarida shaxs faoliyati ham ko'proq darajada individuallashtiriladi va uning mavqeyi o'zgaradi. Agar mamlakat va jamiyat qanchalik rivojlangan bo'lsa unda har bir inson alohida qadrlanadi va o'z o'rniga ega bo'ladi. Talabalar bugungi kunda ro'y berayotgan voqealar, axborotlar oqimining jadallashuviga ongli munosabatda bo'lish tajribasini egallashlari kerak. Ularda axborotlarni saralash, voqea-hodisalarga obyektiv munosabatda bo'lish ko'nikmalarining hosil bo'lishi nihoyatda muhim.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilar kundalik ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni tahlil qilish asosida ularni munosib baholash, shu asosda atrofdagilarning xatti harakatlariga tanqidiy munosabatda bo'lishlari lozim. Bularning barchasi o'quvchilarda ma'naviy xislatlarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xalq ta'lim muassasasi pedagog-tarbiyachilar bolalarda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish bilan bir qatorda, ular xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarning oldini olish, ularni bartaraf qilish tajribasiga ham ega bo'lishlari kerak[15]. Ko'pincha Xalq ta'lim muassasasiga yangi kelgan bolalarda tortinchoqlik, injiqlik, guruh hayotiga moslashmaslik kabi holatlar kuzatiladi.

Bunday holatlarni bartaraf etish, bolalarni jamoa hayotiga moslashtirish, ularni muloqot vaziyatlariga olib kirish, ruhiy osoyishtaliklarini ta'minlash pedagog-tarbiyachilarning muhim vazifalari sirasiga kiradi[16]. Bolalar xarakteridagi salbiy jihatlarni bartaraf qilishga ko'maklashish, ularni to'g'rilik va haqgo'ylikka o'rgatish, irodasini mustahkamlash pedagog tarbiyachilarning muhim vazifalaridandir[1]. Bunda pedagog-tarbiyachilar jamoaviy ta'sir ko'rsatish metodidan foydalanishlari kerak. Pedagog tarbiyachilar bolalarni tevarak-atrofdagi voqelik bilan tanishtirish, ularni shu jarayonda ishtirok etishlari uchun tayyorlashi kerak. Bolalar oldiga aniq, o'rtacha murakkablikdagi vazifalar qo'yilgandagina, ularda tashabbuskorlik, qiziquvchanlik, faollik ko'rsatish istagi namoyon bo'ladi. Natijada bolada mas'uliyat hissi paydo bo'ladi, tarbiyachi tomonidan bildirilgan ishonchni oqlashga intiladi.. Bolalarning o'z oldiga qo'yilgan topshiriqlarni bajara olishlari ularning xulq-atvorlari tartibga solinishiga ko'maklashadi. Buning natijasida ularda xarakter, irodaviy xislatlar mustahkamlanadi. Bolalar xulq-atvoridagi ijobiy jihatlarga tayanish orqali pedagog tarbiyachi ularni rag'batlantirib, kamchiliklarini bartaraf etishga erishadi. Biroq, bolaning kamchiliklarini muntazam ta'kidlayverish ijobiy natija bermasligini bo'lajak pedagog-tarbiyachilar ongiga yetkazish lozim. Bolalarning xulq-atvorini shakllantirish uchun pedagog-tarbiyachi mehribon va talabchan bo'lishi kerak. Bola xulq-atvoridagi tortinchoqlik, loqaydlik, o'yinqaroqlik, qaysarlik kabilarni pedagog-tarbiyachilar ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilishlari talab etiladi[20]. Bo'lajak tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda ota-onalar hamda mahalla bilan hamkorlikni amalga oshirish ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Bolalarda mehnatsevarlik, sinchkovlik, ziyraklik, ishchanlik, mas'uliyatlilik kabi axloqiy sifatlarni qaror toptirishda pedagog-tarbiyachining o'рни beqiyos bo'lib, bunday mas'uliyatli vazifani ular oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'qish jarayonidayoq anglab yetishlari kerak. Ko'rinib turibdiki, Maktablarda barcha faoliyat ko'rsatayotgan pedagog-tarbiyachilar oldiga murakkab vazifalar qo'yimoqda. Shu sababli, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ilmiy dunyoqarash va yuksak ma'naviy xislatlarni rivojlantirish hamda jamoada, jamiyatda o'zini munosib tuta bilish ko'nikmalarini tarkib toptirish tizimli tarzda amalga oshirilishi talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707- sonli qarori, 2016.
2. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur bo'stoni. 2013 3. Usmonboyeva M., To'rayev A. "Kreativ pedagogika asoslari". O'quv-uslubiy majmua. - T.:TDPU. 2016 4. Oybarchin Mahmudova. "Plastik materiallar yordamida didaktik ashyolar tayyorlash metodikasiga oid tajribalar". ePhilosophy and cultureeurasian journal of social sciences. Tashkent. 2022 5. Xojiyeva Z.O'. «Гуманизации дидактических отношений между учителем и учащимся в современном образовании», 2016.
3. Норбошева, М. А. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ОИЛА ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИНИ ЎРГАНИШ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(6).
6. Salomova, G. (2014). THE REFLECTION FEATURES OF ABBREVIATIONS AND ACRONYMS OF THE ENGLISH LANGUAGE. In The Second International conference on development of pedagogical science in Eurasia (pp. 174-176).
7. Саломова, Г., Жумаева, Н., & Хамраева, Д. (2018). Методические принципы современных методик обучения английскому языку. Наука XXI века, (4).
4. .Саломова, Г. А., Маматмуродова, Т., Усарова, Н., & Чориева, Д. (2018). Педагогические науки. НАУКА XXI ВЕКА, 15
5. Матмусаева, М. А. (2017). Оилада болаларни меҳнатга ўргатиш. Молодой ученый, (4-2), 23-24.
6. .Матмусаева, М. А. (2019). ИНТЕГРАЦИЯ В РАЗВИТИИ ЧУВСТВА РОДИНЫ В ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ. Актуальные научные исследования в современном мире, (3-4), 103-106.
7. .Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАР ПОРТФОЛИОЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ ШАРОИТЛАРИ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 9, pp. 129-131). Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ sro.
8. .Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ХАРАКТЕРИ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 9, pp. 127-128). Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ sro.
9. .Махамдалиевна, Y. D., & Матмусаева, М. (2021). On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity, 11, 169-171.
10. .Матмусаева, М. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ-МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ИЖТИМОЙ ТАРБИЯ МАСКАНИ. ИЮДКОР О'ҚИТУВЧИ, 2(20), 130-132.

11. .Matmusayeva, M. A., & Rustamova, N. A. (2021). DEVELOPING LOGICAL THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN. Theoretical & Applied Science, (6), 658-660.
12. .Azamovna, M. M. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF PRESCHOOL CHILDREN.



INNOVATIVE  
ACADEMY